

**O'ZBEKISTON VA YEVROPA ITTIFOQIDA TARIF PREFERENSIYALARINI
BERILISHINI NAZORAT QILISH MEKANIZMLARI: TAHLIL VA
SOLISHTIRMA**

To'lqin Nosirovich Pardayev

Professor

Iqtisod fanlari doktori

Bojxona Qo'mitasi Bojxona Instituti

Toshkent, O'zbekiston

Ortiqov Behzod Shuhrat o'g'li

Kursant

Bojxona Qo'mitasi Bojxona Instituti

Toshkent, O'zbekiston

Annotatsiya: Maqolada O'zbekiston Respublikasida bojxona tarif preferensiyalarining qo'llanilishi va nazoratini olib borish jarayonlari tahlil qilingan. Yevropa Ittifoqi standartlari va tajribasi bilan solishtirma tarzida mamlakatimizda tarif preferensiyalarini qo'llash va nazoratini amalga oshirish jarayonini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar berilgan.

Tayanch so'zlar: tarif preferensiyalari, tashqi iqtisodiy faoliyat, xalqaro standartlar, optimallashtirish, GSP+ (Generalized System of Preferences Plus), bojxona boji stavkalari.

**МЕХАНИЗМЫ КОНТРОЛЯ ЗА ПРЕДОСТАВЛЕНИЕМ ТАРИФНЫХ
ПРЕФЕРЕНЦИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ И ЕС: АНАЛИЗ И СРАВНЕНИЕ**

Тулкин Насирович ПАРДАЕВ

Профессор

Доктор экономических наук

Таможенный Комитет Таможенный Институт

Ташкент, Узбекистан

Ортиков Бехзод Шухрат оглы

Курсант

Таможенный Комитет Таможенный Институт

Ташкент, Узбекистан

Аннотация: В статье проанализированы процессы применения и контроля таможенных тарифных преференций в Республике Узбекистан. Даны предложения и рекомендации по совершенствованию процесса применения и контроля тарифных преференций в нашей стране в сравнении со стандартами и опытом ЕС.

Ключевые слова: тарифные преференции, внешнеэкономическая деятельность, международные стандарты, оптимизация, GSP+(Generalized System of Preferences Plus), ставки таможенных пошлин.

MECHANISMS TO CONTROL THE ISSUANCE OF TARIFF PREFERENCES IN UZBEKISTAN AND THE EUROPEAN UNION: ANALYSIS AND COMPARISON

To'liqin Nosirovich PARDAYEV

Professor

Doctor of Economics

Customs Committee Customs Institute

Tashkent, Uzbekistan

Ortiqov Behzod Shuhrat o'g'li

Cadet

Customs Committee Customs Institute

Tashkent, Uzbekistan

Annotation: The article analyzes the processes of implementation and control of customs tariff preferences in the Republic of Uzbekistan. In a comparative way with the standards and experience of the European Union, proposals and recommendations have been made to improve the process of applying and controlling tariff preferences in our country.

Keywords: tariff preferences, foreign economic activity, international standards, optimization, GSP+(Generalized System of Preferences Plus), customs duty rates.

Bugungi kunda mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatini liberallashtirish va kengaytirish, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish, milliy mahsulotlarimiz eksport salohiyatini oshirish, byurokratik to'siqlarni bartaraf etish, mahalliy mahsulotlarni tashqi bozorlarga chiqarish va tadbirkorlarga qulay shart-sharoit yaratish borasida muhim islohotlar o'tkazilmoqda. Ko'zlangan vazifalarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi asosan bojxona organlari faoliyati samaradorligiga bog'liq.

Mustaqil O‘zbekiston Respublikasi, jahon bozorida o‘z o‘rnini egallashi va undagi mavqeyini kengaytirishi uchun, maqbul darajadagi proteksionistik va erkin savdo siyosatini olib borishi zarur edi. Davlat, o‘zining fiskal siyosatini shakllantirish, ichki ishlab chiqaruvchilarni va ichki bozorni chet el raqobatchilaridan himoya qilish maqsadida, bir qator mutasaddi vazirliklar, jumladan, milliy bojxona xizmati oldiga O‘zbekiston Respublikasi bojxona tarifini ishlab chiqish vazifasini yukladi.

Bojxona tarifi loyihasini ishlab chiqishda tashqi savdo aloqalarini erkinlashtirish, xorijiy mamlakatlar bilan teng huquqli va o‘zaro foydali hamkorlik aloqalarini o‘rnatish va kengaytirish, raqobat va hamkorlik o‘rtasidagi haqiqiy muvozanatni ta’minlash, zamonaviy texnika va texnologiyalarni respublikaga olib kirish, chet ellik investorlarga va O‘zbekiston Respublikasi bilan savdo-iqtisodiy bitimlarini tuzgan mamlakatlarga qulay savdo rejimini shakllantirish prinsiplariga alohida e’tibor qaratildi.

O‘zbekiston Respublikasining boshqa davlatlar bilan savdo-iqtisodiy munosabatlarini amalga oshirishda:

O‘zbekiston Respublikasi bilan birga erkin savdo zonasi yoki bojxona Ittifoqini tashkil qilgan yoxud shunday zona yoki Ittifoq tuzish maqsadini ko‘zlovchi bitimni imzolagan davlatlarda ishlab chiqarilgan tovarlarga;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan O‘zbekiston Respublikasi milliy preferensiya tizimidan foydalanuvchi, rivojlanayotgan mamlakatlarda ishlab chiqarilgan tovarlarga nisbatan boj to‘lashdan ozod qilish, boj stavkalarini kamaytirish yoki preferensial tartibda tovar olib kirishga (olib chiqishga) tarif kvotalari belgilash kabi preferensiyalar taqdim etiladi.

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadlaridan biri mamlakatni dunyoning iqtisodiy jihatdan rivojlangan davlatlari qatoriga kiritish. Har bir davlat uchun ushbu jarayonning asosiy omillaridan biri, albatta, jahon bozori uchun sifatli va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishdir. Aynan shu yo‘nalishda so‘nggi yillarda qator samarali chora-tadbirlar amalga oshirildi. Xususan, YeI bozoriga qulay shartlarda chiqish O‘zbekiston uchun har doim dolzarb bo‘lib kelgan. 2021 yilda bu borada katta qadam tashlandi. Ya’ni O‘zbekiston Yevropa Ittifoqining GSP+ umumiy preferensiyalar tizimi bo‘yicha benefitsiar mamlakat sifatida qabul qilindi.

GSP+ nima?

GSP+ dasturi Yevropa Ittifoqi bozorlariga rivojlanayotgan mamlakatlardan kelayotgan qishloq xo‘jaligi mollari va boshqa ayrim mahsulotlar eksportiga berilgan imtiyozlardir. Dasturga to‘liq a‘zo bo‘lgan davlat Yevropa Ittifoqi bozorlariga 3000ga yaqin mahsulotlarni bojxona to‘lovlarisiz, 3200 turdagi mahsulotlarni esa pasaytirilgan stavkalar bo‘yicha eksport qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

GSP+ tizimiga qo‘shilish O‘zbekistonga katta imtiyozlar beradi. Nega deganda, ushbu tizim doirasida bojxona to‘siqlari, tariflari va boshqa to‘lovlarni kamaytirish nazarda tutiladi.

Yevropa bozori juda katta. Bu yerda 500 mlndan ziyod aholi istiqomat qiladi. Shu bois O‘zbekistonning GSP+’ga qo‘shilishi o‘zbek kompaniyalarining bu bozorga kirib kelishiga va o‘z mahsulotini sotishiga imkon berdi.

O‘zbekistonda tarif preferensiyalarini to‘g‘ri qo‘llanishi mavzusi mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi va tashqi savdo siyosatida muhim o‘rin tutadi.

Jahon iqtisodiy integratsiyasi sharoitida davlatlar o‘rtasidagi savdo aloqalari tez sur’atlar bilan kengayib bormoqda. Xalqaro savdoda rivojlanayotgan mamlakatlarga beriladigan tarif preferensiyalari ular uchun tashqi bozorga chiqishda muhim imkoniyat yaratadi. Jumladan, Yevropa Ittifoqi tomonidan taklif etilgan GSP (Generalized System of Preferences) va GSP+ dasturlari bu borada alohida ahamiyatga ega. O‘zbekiston 2021-yildan boshlab GSP+ tizimiga qo‘shilgan va bu orqali YI bozoriga 6 200 dan ortiq mahsulotlarni bojxona to‘lovizsiz eksport qilish imkoniyatini qo‘lga kiritgan.

Shu bilan birga, tarif preferensiyalarining noto‘g‘ri yoki asossiz qo‘llanishi xalqaro savdoda firibgarlik, davlat daromadlarining yo‘qolishi va ishonchning pasayishiga olib keladi. Shu bois, imtiyozlar qonuniy va shaffof tarzda qo‘llanishi uchun nazorat mexanizmlari ishlab chiqilgan. Ushbu maqolada Yevropa Ittifoqi va O‘zbekistonda tarif preferensiyalarini berilishini nazorat qilish tizimlari o‘rganiladi va ularning farqlari, o‘xshashliklari hamda takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar keltiriladi.

1. Tarif preferensiyalari va ularni qo‘llash tizimi

Tarif preferensiyalari — bu xalqaro savdo doirasida ayrim tovarlar uchun bojxona to‘lovlarining kamaytirilishi yoki bekor qilinishi. Ular ikki tomonlama yoki ko‘p tomonlama savdo bitimlari asosida beriladi. GSP+ dasturi aynan rivojlanayotgan mamlakatlarga YI bozoriga kirishda tarif yengilliklarini taqdim etadi. Bu tizimdan foydalanish uchun mahsulotning kelib chiqishini aniqlovchi hujjat talab etiladi. YI 2017-yildan boshlab bu maqsadda **REX (Registered Exporter System)** tizimini joriy qilgan.

O‘zbekiston REX tizimiga 2019-yilda qo‘shildi. Bu tizim orqali eksportchilar mahsulot kelib chiqishini mustaqil ravishda tasdiqlovchi deklaratsiya berish imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Bu esa bojxona jarayonlarini soddalashtiradi va xarajatlarni kamaytiradi.

2. Yevropa Ittifoqida tarif preferensiyalarini nazorat qilish tizimi

YI da tarif preferensiyalarining noto‘g‘ri qo‘llanishiga qarshi qat’iy nazorat mexanizmlari ishlab chiqilgan:

- **REX tizimi orqali deklaratsiyalarni real vaqtda onlayn tekshirish:** YI bojxonalari eksportchining REX kodini va deklaratsiyalarni avtomatik tekshiradi.

- **Kelib chiqish qoidalari asosida baholash:** Har bir mahsulot uchun kelib chiqish mezonlari aniq belgilangan (UCC – Union Customs Code asosida).
- **Post-audit va tekshiruvlar:** Preferensiya qo‘llanilgan eksportlar keyinchalik ham audit qilinadi, 3 yilgacha orqaga qaytib tekshiruv o‘tkazilishi mumkin.
- **Xalqaro verifikatsiya:** YI zarur hollarda mahsulot kelib chiqishini eksport qiluvchi davlatdan rasman tekshiruvini so‘rashi mumkin.
- **Jarimalar va sanksiyalar:** Noto‘g‘ri deklaratsiyalar aniqlansa, tarif imtiyozi bekor qilinadi va eksportchi REX tizimidan chiqarilishi mumkin.

3. O‘zbekistonda tarif preferensiyalarini nazorat qilish tizimi

O‘zbekistonda tarif preferensiyalarining ahvoli haqida umumiy fikrlar:

Tarif preferensiyalarining joriy etilishi: O‘zbekiston mustaqillikdan keyin xalqaro savdoda faol ishtirok etish, eksportni rag‘batlantirish maqsadida turli tarif imtiyozlarini joriy qilgan. Asosan, O‘zbekiston xalqaro savdo kelishuvlari, jumladan, Jahon savdo tashkiloti (WTO) bilan hamkorlik, shuningdek, mustaqil ravishda turli davlatlar bilan imzolangan erkin savdo shartnomalari orqali tarif preferensiyalarini belgilaydi.

To‘g‘ri qo‘llanishdagi muammolar: Tarif preferensiyalarining samarali va to‘g‘ri qo‘llanmasligi ba‘zan byurokratik to‘siqlar, huquqiy bazaning yetarli darajada shakllanmaganligi va axborot yetishmovchiligi sababli yuzaga keladi. Ayrim hollarda eksportchilar yoki importchilar kerakli preferensiyalardan to‘liq foydalana olmaydi, chunki hujjatlar, sertifikatlar va talablar murakkab yoki tushunarsiz bo‘lishi mumkin. Kontrollik tizimlarining samaradorligi ba‘zida pastligi natijasida noqonuniy yoki noto‘g‘ri tarif qo‘llash holatlari uchraydi.

Tarif preferensiyalarining ahamiyati: To‘g‘ri tarif preferensiyalari eksport hajmini oshirish, ichki ishlab chiqaruvchilarni himoya qilish va iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtirishda yordam beradi. O‘zbekiston uchun ayniqsa, Qozog‘iston, Rossiya, Xitoy va Yevropa Ittifoqi kabi asosiy savdo hamkorlari bilan tarif imtiyozlari muhim.

Rivojlanish istiqbollari: Hukumat tomonidan bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish, raqamlashtirish va xalqaro standartlarga moslashtirish ishlari olib borilmoqda. Tariff preferensiyalaridan foydalanish jarayonini optimallashtirish va uni ochiq qilish uchun qonunchilik bazasini yanada takomillashtirish kerak.

O‘zbekistonda tarif preferensiyalarining qo‘llanilishi **Bojxona Qo‘mitasi** tomonidan nazorat qilinadi. Bu jarayon quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- **Eksportchi REX tizimida ro‘yxatdan o‘tadi:** Bu ro‘yxatdan o‘tish uchun maxsus ariza, hujjatlar to‘plami va bojxona idorasining tasdig‘i talab etiladi.

- **Kelib chiqish deklaratsiyasining tekshiruvi:** Bojxona organlari deklaratsiyaning REX kodi, mahsulot tavsifi va kelib chiqishiga asos bo‘ladigan faktlarni baholaydi.
- **Post-audit tekshiruvlari:** Bojxona va soliq organlari mahsulot eksportidan keyin ham hujjatlarni qayta tahlil qilishi mumkin.
- **Xalqaro axborot almashinuvi:** YI bojxona xizmatlari bilan o‘zaro ma’lumot almashuvi asosida deklaratsiyalarni tasdiqlash amalga oshiriladi.

4. YI va O‘zbekiston tizimlarining solishtirma tahlili

Asosiy jihat	Yevropa Ittifoqi (YI)	O‘zbekiston
REX tizimi	Avtomatik, onlayn, ochiq reyestr	Bojxona orqali, ichki tizimda
Kelib chiqish deklaratsiyasi	Eksportchi tomonidan REX asosida	Eksportchi tomonidan REX asosida
Post-audit	Majburiy, tizimli	Tanlab olinadi yoki shubha bo‘lsa
Axborot almashinuvi	Muntazam, elektron shaklda	Talabga binoan, asosan so‘rovnomalar orqali
Jazolar va sanksiyalar	Imtiyoz bekor qilinadi, REXdan chiqariladi	Jarima, to‘lovlarni qayta hisoblash
Texnik infratuzilma	Yuksak raqamlashtirilgan	Hali rivojlanish bosqichida

5. Xulosa va takliflar

Yevropa Ittifoqi va O‘zbekiston tomonidan qo‘llanilayotgan tarif preferensiyalari nazorat tizimlari umumiy maqsad — imtiyozlarning qonuniy qo‘llanishini ta’minlashga qaratilgan. Biroq YI tizimi yanada raqamlashtirilgan, shaffof va real vaqt nazoratini ta’minlaydi. Hukumat tomonidan bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish, raqamlashtirish va xalqaro standartlarga moslashtirish ishlari olib borilmoqda. Tariff preferensiyalaridan foydalanish jarayonini optimallashtirish va uni ochiq qilish uchun qonunchilik bazasini yanada takomillashtirish kerak. O‘zbekistonda tarif preferensiyalarining to‘g‘ri qo‘llanishi mamlakatning tashqi iqtisodiy aloqalarini

rivojlantirishda muhim omil bo‘lib qolmoqda, biroq bu jarayonda huquqiy va ma‘muriy to‘siqlarni bartaraf etish, axborot va nazorat tizimlarini yaxshilash orqali yanada samaraliroq tizim yaratish zarur.

O‘zbekiston uchun takliflar:

1. **REX reyestrini qisman ochiq lashtirish**, uni onlayn tekshiruvga moslashtirish.
2. **Elektron deklaratsiya va avtomatlashtirilgan audit tizimini joriy etish.**
3. **Post-audit tekshiruvlarini kuchaytirish va tizimlashtirish.**
4. **Bojxona xodimlarini YI tajribasi asosida o‘qitish va malakasini oshirish.**
5. **YI bilan ikki tomonlama verifikatsiya mexanizmlarini mustahkamlash.**

Adabiyotlar ro‘yxati

1. European Commission, “The Registered Exporter System (REX)”, ec.europa.eu
2. O‘zbekiston Respublikasi Bojxona qo‘mitasi rasmiy veb-sayti — www.customs.uz
3. World Trade Organization (WTO), Rules of Origin Handbook
4. EU Regulation No 2015/2447 (UCC Delegated Act)
5. O‘zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi materiallari, 2023